

O'ZBEKISTONDA XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASHNING MA'MURIY-HUQUQIY TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH: MUSTAQILLIKNING 35 YILLIK TARAQQIYOT YO'LI

*Jamoat xavfsizligi universiteti yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Tursunova Sabina Ravshanovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan mamlakatda xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida turistlar xavfsizligini ta'minlash umumiy turizm qonunchiligining alohida yo'nalishidan davlat boshqaruvi va jamoat xavfsizligini ta'minlashning maxsus mexanizmiga aylangani asoslantirilgan. 1999-yildagi "Turizm to'g'risida"gi Qonun, 2017-yilda xavfsiz turizm konsepsiyasining joriy etilishi, 2019-yildagi yangi tahrirdagi "Turizm to'g'risida"gi Qonun hamda transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Amaldagi tizimning ayrim muammolari aniqlanib, xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasini umumrespublika miqyosida yangilash, hududiy xavfsizlik dasturlarining yagona mezonlarini ishlab chiqish va davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, turizm, xavfsiz turizm, turist xavfsizligi, ma'muriy huquq, davlat boshqaruvi, jamoat xavfsizligi, ichki ishlar organlari, turistik hudud, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi mamlakatimizda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijalarini ilmiy jihatdan umumlashtirish uchun muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-apreldagi qarorida ham davlat mustaqilligi mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining asosiy sharti ekani, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijalarini keng yoritish zarurligi alohida qayd etilgan.[1]

Shu nuqtayi nazardan, mustaqillik yillarida turizm sohasining rivojlanishini nafaqat iqtisodiy ko'rsat kichlar, balki ushbu sohada shakllangan milliy huquqiy va institutsional mexanizmlar orqali ham baholash lozim. Ayniqsa, turistlarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, turistik hududlarda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari turizm siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Mazkur masalaning dolzarbligi turistlar oqimining izchil ortib borayotgani bilan ham belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonga turistik maqsadlarda 11,7 million nafar chet el fuqarosi tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 46,8 foizga oshgan.[2] 2026-yilning yanvar–iyul oylarida esa mamlakatimizga 7 749 308 nafar xorijiy fuqaro turistik maqsadlarda tashrif buyurgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 22,6 foizga ko'pdir.[3]

Turistlar sonining bunday o'sishi davlat oldiga faqat turizm infratuzilmasini rivojlantirish emas, balki turistlarning xavfsizligini kafolatlash, turistik obyektlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va tegishli davlat organlari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish vazifalarini ham qo'ymoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi — mustaqillik yillarida O'zbekistonda xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy tizimi shakllanishining asosiy bosqichlarini aniqlash, uning bugungi holatini baholash hamda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli-tahliliy, tarixiy-huquqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

O'zbekistonda turistlar xavfsizligini huquqiy ta'minlash mustaqillikning dastlabki yillaridayoq turizm sohasidagi davlat siyosatining tarkibiy yo'nalishi sifatida shakllana boshlagan.

Bu borada muhim huquqiy bosqichlardan biri 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonun bo'ldi. Mazkur Qonunning 18-moddasi "Turistlarning xavfsizligi kafolati", 19-moddasi esa "Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari" deb nomlangan edi. Qonunda turistik faoliyat subyektlari turistlar xavfsizligini ta'minlash, ular jarohatlangan, kasallangan yoki boshqa favqulodda vaziyatlarga tushgan hollarda tibbiy va boshqa turdagi yordam ko'rsatish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishi belgilangan edi.[4]

Demak, turistlar xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonda faqat so'nggi yillarda shakllangan huquqiy institut emas. Uning dastlabki qonunchilik asoslari 1999-yildayoq yaratilgan.

Biroq o'sha davrdagi yondashuvda xavfsizlik masalasi asosan turistik faoliyat subyektlarining majburiyatlari bilan bog'langan edi. Turistik hududlarda maxsus davlat boshqaruvi, ixtisoslashtirilgan xavfsizlik bo'linmalari va alohida tashkiliy mexanizmlarni yaratish hali to'liq shakllanmagan edi.

Mazkur yo'nalishda tub burilish 2016-yildan keyingi davrga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son Farmoni bilan turizm mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi hamda sohada davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish bo'yicha yangi vazifalar qo'yildi.[5]

Turizmni rivojlantirish bilan bir vaqtda turistlar xavfsizligini ta'minlashning maxsus tizimini yaratish zarurati ham yuzaga keldi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-son qarori bilan Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.[6]

Mazkur hujjatning qabul qilinishi xavfsiz turizm sohasidagi davlat siyosatining rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki ushbu bosqichdan boshlab turistlar xavfsizligi faqat turoperator yoki turagentning majburiyati sifatida emas, balki davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlarining maxsus faoliyat yo'nalishi sifatida ham shakllandi.

Shu tariqa, 2017-yildan boshlab O'zbekistonda xavfsiz turizmning maxsus tashkiliy-huquqiy modeli shakllana boshlaganini qayd etish mumkin.

Xavfsiz turizmni ta'minlash tizimining keyingi rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim o'rin tutadi.

Mazkur hujjat asosida transport va turizm obyektlaridagi xavfsizlik masalalarini yagona tizim asosida tashkil etish, ichki ishlar organlarining ixtisoslashtirilgan tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish, turistik obyektlar hududida jamoat xavfsizligini ta'minlashning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari belgilandi.[7]

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgustdagi 669-son qarori bilan ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan turistlar va turistik guruhlarini kuzatib borish hamda turizm namoyishi obyektlarida jamoat tartibini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi belgilandi.[8]

Bu holat xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy mazmuni sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Endilikda mazkur faoliyat faqat turist bilan turoperator o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lmay, jamoat tartibini saqlash, profilaktika, davlat organlari o'rtasida axborot almashish va maxsus bo'linmalar faoliyatini tashkil etish kabi ommaviy-huquqiy munosabatlarni ham qamrab oldi.

Xavfsiz turizmni huquqiy tartibga solishda 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida"gi Qonun alohida ahamiyatga ega.

Mazkur Qonunning 9-bobi to'liq "Xavfsiz turizmni ta'minlash" masalalariga bag'ishlangan. Xususan, 35-moddada turistlar va ekskursantlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. 36-moddada turoperator va turagentlarning turistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari, 37-moddada ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar faoliyati, 38-moddada esa turizm sohasidagi sug'urta masalalari tartibga solingan.[9]

Qonunda turoperatorlarning turistlarga sayohat davomida duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida to'liq ma'lumot berishi, zarur ogohlantiruvchi choralarni ko'rishi, favqulodda hodisalar to'g'risida vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi hamda turizmning ayrim maxsus turlarida yo'riqchi-yo'l boshlovchilar xizmatidan foydalanishi majburiyligi nazarda tutilgan.[10]

Mazkur normalar xavfsiz turizmning zamonaviy ma'muriy-huquqiy modelida davlatning o'zi bilan bir qatorda turizm sohasi subyektlari ham muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining qabul qilinishi xavfsiz turizmni umumiy jamoat xavfsizligi tizimi bilan yanada yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Ichki ishlar vazirligi tizimida Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti faoliyat yuritayotgani ham ushbu yo'nalishning mustaqil institutsional ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.[11]

Shu asosda, fikrimizcha, xavfsiz turizmni ta'minlashni **turistlarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki, huquq va qonuniy manfaatlarini turistik safar davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan, davlat organlari hamda turizm sohasi subyektlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan ma'muriy-huquqiy, tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlari tizimi** sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Mazkur ta'rifning asosiy jihati shundan iboratki, xavfsiz turizm faqat sodir etilgan huquqbuzarlikka munosabat bildirish emas, balki ehtimoliy xavfni oldindan aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan faoliyatdir.

Mustaqillik yillarida xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, bugungi rivojlanish bosqichi ushbu tizimni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Birinchi navbatda, 2017-yilda qabul qilingan xavfsiz turizm konsepsiyasining hududiy doirasiga e'tibor qaratish lozim. Mazkur Konsepsiya dastlab Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlari uchun ishlab chiqilgan edi.[12]

Biroq bugungi kunda turizm geografiyasi ushbu to'rtta tarixiy shahar bilan cheklanmaydi. Toshkent shahri va viloyati, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Surxondaryo, Navoiy, Qashqadaryo va boshqa hududlarda ekologik, ziyorat, tog', ekstremal va boshqa turizm yo'nalishlari faol rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida turistlarning xavfsizligi butun O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tomonidan kafolatlanadi.[13]

Natijada normativ tartibga solishning dastlabki hududiy modeli bilan bugungi amaliy ehtiyojlar o'rtasida ma'lum nomuvofiqlik shakllangan.

Mazkur masalaning davlat darajasida ham tan olinganini 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmon mazmunidan ko‘rish mumkin. Farmonga muvofiq, 2017-yilda tasdiqlangan Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta‘minlash konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilangan. Bunda asosiy mas‘ul ijrochi sifatida Ichki ishlar vazirligi, hamkor tashkilotlar sifatida Raqamli texnologiyalar vazirligi, tegishli viloyatlar hokimliklari va boshqa manfaatdor idoralar ko‘rsatilgan.[14]

Mazkur holat xavfsiz turizmni ta‘minlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish uchun huquqiy imkoniyat yaratmoqda.

Ikkinchi muammo hududiy xavfsizlik choralarini belgilashning yagona mezonlari bilan bog‘liq. “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari turistik yo‘nalishlar bo‘yicha turistlarning himoyalanganligi va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqadi.[15]

Biroq ushbu dasturlarning majburiy tarkibi, turistik hudud xavfsizligini baholash mezonlari hamda davlat organlari faoliyati samaradorligini aniqlaydigan yagona ko‘rsatkichlar qonunchilikda yetarli darajada aniqlashtirilmagan.

Natijada bir hududdagi xavfsizlik dasturi boshqa hududdagi dasturdan mazmun va talablar jihatidan sezilarli farq qilishi mumkin.

Uchinchi masala — davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada aniq tartibga solish zaruratidir. Turist bilan bog‘liq hodisa ichki ishlar organlari bilan bir qatorda favqulodda vaziyatlar, sog‘liqni saqlash, mahalliy hokimlik, transport va turizm sohasidagi vakolatli davlat organining tezkor hamkorligini talab qilishi mumkin.

Shuning uchun xavfsiz turizm tizimining samaradorligi har bir idoraning alohida faoliyatidan ko‘ra, ularning o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatiga ko‘proq bog‘liq.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, xavfsiz turizmni ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, 2017-yildagi hududiy Konsepsiya o‘rniga yoki uning tubdan yangilangan shakli sifatida “O‘zbekiston Respublikasida xavfsiz turizmni ta‘minlash konsepsiyasi” ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yangi Konsepsiya faqat to‘rtta tarixiy shaharga emas, balki respublikaning barcha turistik hududlari va turizm yo‘nalishlariga tatbiq etilishi lozim.

Unda:

- xavfsiz turizmni ta‘minlashning maqsadi va asosiy prinsiplari;
- davlat organlarining aniq vakolatlari;
- turizm sohasi subyektlarining xavfsizlik bo‘yicha majburiyatlari;
- turistik hududlarda profilaktika ishlarini tashkil etish;
- favqulodda vaziyatlarda idoralararo harakatlar algoritmi;
- xavfsizlik holatini baholash va monitoring qilish tartibi belgilanishi lozim.

Bunday yondashuv 2017-yilda shakllangan mahalliy modeldan xavfsiz turizmni ta'minlashning yagona milliy modeliga o'tish imkonini beradi.

Ikkinchidan, turistik hududlar va yo'nalishlarning xavfsizlik holatini baholash bo'yicha **yagona minimal mezonlarni** tasdiqlash maqsadga muvofiq.

Bunda turistik hududda:

- jamoat tartibiga tahdidlar;
- yo'l-transport xavfsizligi;
- videokuzatuv tizimlarining mavjudligi;
- tungi yoritish;
- tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati;
- favqulodda vaziyatlar xizmatlarining yetib kelish vaqti;
- aloqa vositalarining ishlashi;
- turistlar uchun zarur axborot va ogohlantiruvchi belgilar kabi mezonlar hisobga olinishi mumkin.

Ushbu mezonlar asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan hududiy xavfsizlik dasturlari yagona talab asosida shakllantirilishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, xavfsiz turizmni ta'minlashda **idoralararo boshqaruv mexanizmini** kuchaytirish talab etiladi.

Turist bilan bog'liq favqulodda hodisa yuz berganda murojaat qaysi davlat organiga kelib tushganidan qat'i nazar, axborot zarur vakolatga ega barcha xizmatlarga tezkor yetkazilishi lozim.

Shu maqsadda turistlar bilan bog'liq favqulodda holatlar yuzasidan Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Turizm qo'mitasi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro hamkorligi bo'yicha yagona ma'muriy reglament ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, xavfsizlikni ta'minlash faoliyatini faqat sodir etilgan hodisalar yoki jinoyatlar soni bilan baholashdan voz kechib, **profilaktik samaradorlik ko'rsatkichlarini** joriy etish lozim.

Bunda sodir etilgan huquqbuzarliklar bilan bir qatorda turistlarning murojaatlariga javob berish tezligi, turistik hududlarning videokuzatuv va yoritish tizimlari bilan qamrab olinishi, profilaktik tadbirlar natijalari hamda favqulodda xizmatlarning voqea joyiga yetib borish vaqti ham hisobga olinishi mumkin.

Bu xavfsiz turizm bo'linmalari faoliyatini "hodisaga javob berish" tamoyilidan "hodisaning oldini olish" tamoyiliga bosqichma-bosqich o'tkazishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik davri turizm sohasida nafaqat iqtisodiy va tashkiliy rivojlanish, balki turistlar xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos milliy ma'muriy-huquqiy tizimi shakllangan davr sifatida ham baholanishi lozim.

O'tkazilgan tahlil xavfsiz turizmni ta'minlash tizimi bir necha bosqichda shakllanganini ko'rsatadi. Dastlab turistlar xavfsizligi turizm qonunchiligidagi umumiy kafolat sifatida mustahkamlangan bo'lsa, keyinchalik maxsus konsepsiyalar, ixtisoslashtirilgan ichki ishlar bo'linmalari va alohida ma'muriy-huquqiy mexanizmlar joriy etildi. 2019-yildagi yangi "Turizm to'g'risida"gi Qonunda xavfsiz turizmga alohida bob ajratilishi mazkur jarayonning mantiqiy natijasi bo'ldi.

Shu bilan birga, bugungi kunda turizm geografiyasi va turistlar oqimining kengayishi xavfsiz turizmni ta'minlashning 2017-yilda shakllangan hududiy modelini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. 2026-yildagi PF-21-son Farmon bilan ushbu Konsepsiyani qayta ko'rib chiqish vazifasi belgilangani mazkur xulosaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.[16]

Fikrimizcha, yangi bosqichda asosiy vazifa xavfsiz turizmni ta'minlashning alohida hududlarga yo'naltirilgan tizimidan **yagona umumrespublika ma'muriy-huquqiy modeliga o'tishdan** iborat bo'lishi kerak.

Buning uchun xavfsiz turizm bo'yicha yangilangan milliy konsepsiyani qabul qilish, turistik hududlar xavfsizligini baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish, hududiy dasturlarni bir xil metodologiya asosida shakllantirish hamda davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning aniq ma'muriy tartibini belgilash maqsadga muvofiq.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi turistlarning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilish, turistik hududlarda jamoat xavfsizligini mustahkamlash hamda O'zbekistonning xavfsiz va ishonchli turistik davlat sifatidagi xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-apreldagi qarori // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. ([Prezident Uzbekiston](#))

[2] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan". 2026-yil 16-yanvar. ([Statistika Uzbekiston](#))

[3] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "7 oyda O'zbekistonga 7,7 mln nafar turist tashrif buyurdi". 2026-yil 11-avgust. ([Statistika Uzbekiston](#))

[4] "Turizm to'g'risida": O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 830-I-son Qonuni. 18-19-moddalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[5] "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida": O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[6] "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida": O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[7] “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[8] “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgustdagi 669-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[9] “Turizm to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son Qonuni. 35–38-moddalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[10] “Turizm to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son Qonuni. 36-moddalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[11] “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-yanvardagi 37-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[12] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-son qarori.

[13] O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son “Turizm to'g'risida”gi Qonuni. 35-modda.

[14] “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni, tegishli ilova // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[15] O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son “Turizm to'g'risida”gi Qonuni. 35-modda.

[16] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni.